

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.26/04.07.2023.T.11.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

QUTLIYEV ABRORBЕК ANVARBEK O‘G‘LI

TARIXIY SHAHARLARDA AVTOTRANSPORT HARAKATINI
REJALASHTIRISHDA SHAHARSOZLIK USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(XIVA SHAHRI MISOLIDA)

18.00.02- Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish.
Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of (PhD on technical
sciences**

Qutliyev Abrorbek Anvarbek o'g'li

Tarixiy shaharlarda avtotransport harakatini rejalashtirishda shaharsozlik usullarini takomillashtirish (Xiva shahri misolida).....3

Кутлиев Аброрбек Анварбек ўғли

Совершенствование градостроительных методов при планировании дорожного движения в исторических городах (на примере города Хивы).....26

Kutliev Abrorbek Anvarbek o'g'li

Improvement of urban planning methods in the planning of traffic in historical cities (as an example of the city of Khiva).....50

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.26/04.07.2023.T.11.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

QUTLIYEV ABRORBЕК ANVARBEK O‘G‘LI

TARIXIY SHAHARLARDA AVTOTRANSPORT HARAKATINI
REJALASHTIRISHDA SHAHARSOZLIK USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(XIVA SHAHRI MISOLIDA)

18.00.02- Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish.
Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/A152 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://taqi.uz/interaktiv-xizmatlar/taqi-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/avtoref.html>) hamda "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usmonov Quvvat Turdievich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abdunazarov Jamshid Nurmuhamatovich
texnika fanlari doktori, professor

Xudaykulov Rashidbek Mansurjonovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

"TOSHKENTBOSHPLANLITI" DUK

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD.26/04.07.2023.T.11.03 raqamli ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashining 2025 yil "___" _____, soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko'chasi 9-uy, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti majlislar zali. Tel.: +998 (55) 508 02 56. e-mail: devon@taqu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani Yangi shahar ko'chasi, 9-uy. Tel.: +998 (71) 142 65 85.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "___" dekabr kuni tarqatildi. (2024 "21" noyabr dagi №1/24-3 raqamli reestr bayonnomasi).

A.T. Xotamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

F.A. Abdixalilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

I.S. Shukurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

Kirish (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo shaharlarida shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish, harakatni to'g'ri tashkillashtirish va harakat xavfsizligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda har yili dunyoda "... taxminan 1,19 million kishi yo'l-transport hodisalari (YTH) dan vafot etadi, kuniga o'rtacha 3,700 kishi halok bo'ladi hamda 20-50 million kishi jarohatlangan yoki nogiron bo'lib qolmoqda. Shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida harakatni to'g'ri tashkillashtirilmasligi oqibatida yo'l-transport jarohatlari 5 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan bolalar va yoshlar o'limining asosiy sababi hisoblanadi. Yo'l-transport hodisalari o'lim hodisasi sabablari orasida 9-o'rinni egallaydi".¹ Transport masalasi rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida shaharsozlikda dolzarb bo'lib, shaharlarda harakatni to'g'ri tashkillashtirish orqali Shveysariya, Norvegiya, Singapur, Shvesiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Daniyada yo'l-transport hodisalaridan o'lim darajasi bir necha barobar kamayganligi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jaxonda shahar aholisiga qulay sharoit yaratish maqsadida, shaharsozlik, arxitektura, transport, atrof-muhit muhofazasi, ekologiya kabi yo'nalishlarda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda avtotransport harakatini to'g'ri tashkillashtirishda avtomobilizatsiya darajasi o'rinishi bilan bir qatorda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining o'tkazish qobiliyati (yuklanganlik darajasi) belgilangan me'yoriy talablardan yuqorligi shaharlar uchun bir qancha salbiy ta'sirlarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan: yo'l-transport hodisalari; atrof-muhitning ifloslanishi; tirbandliklar; avtomobillar uchun to'xtash joylari hisobiga aholi uchun shahar maydonining rekreatsiya hududini qisqarishi; ko'cha-yo'l tarmog'ining, tarixiy shaharlardagi yodgorlik, bino va inshootlariga haddan tashqari yaqinlashishi natijasida o'zidan shovqin, chiqindi gaz, tebranish, elektromagnitik kabi ta'sirlari belgilangan me'yordan ortishi sababli shahar aholisiga va tarixiy yodgorliklarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhim omillarni asoslash kabi maqsadli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida avtotransport harakatini to'g'ri tashkillashtirish va uning ekologiyaga bo'lgan zararini kamaytirish bo'yicha samarador taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda shaharlar ayniqsa tarixiy shahar ko'cha-yo'l tarmog'larida harakat miqdorini ortishi va tarkibini o'zgarishi, harakat tezligining pasayishi, ko'cha-yo'l tarmog'ining o'tkazish qobiliyati pasayishi, avtotransport vositalarining ushlanib qolish vaqtlarining oshishi natijasida tarixiy yodgorliklar va shahar ekologiyasiga salbiy ta'sirining ortishi kuzatilmoqda. Bu borada shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining funkcionalligini hisobga olib, shaharsozlik-rejaviy va ma'muriy chora-tadbirlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi

¹ Jaxon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining Yo'l harakati jarohatlari bo'yicha 2023 yil 13-dekabr holatiga hisoboti. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/road-traffic-injuries>

O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida “...80-maqсад: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash...”² bo‘yicha bir qancha vazifalar belgilab berilgan. Bu borada Respublikamizning tarixiy shaharlarida avtotransport harakatini to‘g‘ri tashkillashtirish, avtotransport shovqini va chiqindi gazlaridan ifloslanganlik darajasini kamaytirish, unga qarshi shaharsozlik-rejaviy, ma‘muriy hamda muhandislik chora-tadbirlarni istiqbolli yechimini ishlab chiqish va samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 23 noyabrdagi PF-199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 9-dekabrda PQ-4545-son “Yo‘l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2014 yil 21 iyuldagi PQ-200-son “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurs tejankorligi, transport va mashinasozlik” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Shaharlarni avtotransport shovqini va chiqindi gazlardan ifloslanganlik darajasini kamaytirish, unga qarshi ma‘muriy va shaharsozlik-rejaviy chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shuningdek shaharlarning shovqin va chiqindi gazlari xaritasini tuzish, tarixiy majmualar va turar-joy maskanlarini avtotransport shovqini va chiqindi gazlaridan himoyalovchi tarixiy shaharlar ko‘cha-yo‘l tarmog‘ida avtotransport harakatini rejalashtirish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar, jumladan A.V. Mixaylov, R.N. Filimonov, G.A. Fedatova, A.V. Zedgenizov, I.A. Baxireva, N.Y. Karmadonovaa, Y.A. Chernichenkoa, A.M. Tanatova, L.V. Bulavina, Y.I. Ananev, N.Y. Zalukayeva, M.N. Kripak, O.A. Lebedeva, V.V. Shirin, V.V. Morozov, S.A. Yarkov, A.Y. Mixaylov, G.A. Fedatova, Y.M. Lobanov, A.S. Baymistruk, A.A. Mixalchenko, M. Treiber, A. Kesting, R. Evans, K.K. Levine, L.H. Guo, S. Cheng, J. Liu, Y. Wang, Y. Cai, O. Aktaş, S. Selim, I. Hasan, Erwin, A.K. Junaidi, D.S. Arief, E. Y.W. Seto, A. Holt, T. Rivard, R. Bhatia, D.R. Sonaviya, B.N. Tandel, M. Gheibi, M. Karrabi, P. Latifi, A.M. Fathollahi-Fard, B.S. Chauhan, S. Kumar, N. Garg, C. Gautam, S.Y. Sanjiyeva, R.

² 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

Ali, R. Goldston, A.A. Dementev, A.P. Sherbatyuk, Y.P. Ivanova, V.F. Xvatov va boshqalar.

Yurtimizda shahar ko'cha-yo'l tarmog'larida avtotransport harakatini rejalashtirish, shovqin va chiqindi gazlar miqdorlarini baholash, prognozlash va kamaytirish bo'yicha bir qator olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, I.S. Shukurov, A.X. Uroqov, Z.I. Xudayberdiev, A.I. Xoliqov, Q.T. Usmonov, F.A. Abdixalilovlar bu masalalarni nazariy va eksperimental tadqiqotlar orqali hal etib, mamlakatimizda ijobiy natijalarga erishgan.

Shu bilan birga tarixiy shaharlarda transport oqimi va zichligini kamaytirish bilan birga yo'l infratuzilmasini takomillashtirishda shaharsozlik-rejaviy loyihalarini rejalashtirishda bir vaqtning o'zida tarixiy Xiva shahrining tarixiy majmualari, bino va inshootlarni umrboqiyiligini oshirish, shovqin va chiqindi gazlarini insonlarga jiddiy zarar keltirishini oldini olish muhim ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi. Ammo tarixiy shaharlarda shovqin va chiqindi gazlariga qarshi chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqilmaganligi, ekologik toza shahar majmuasini yaratish yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-201902192+201902197 "Qo'ng'iroq-Mo'ynoq avtomobil yo'l yoqalarining innovatsion landshaft dizayni yechimini ishlab chiqish" (2019-2021 yy.) mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xiva shahrida yo'l-transport tarmoqlarini rejalashtirishda avtotransport vositalarining shahar ekologiyasiga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Xiva shahar ko'cha-yo'l tarmog'i (KYT) ning zichligini aniqlash;

Xiva shahar KYT da harakatlanayotgan avtotransport oqimining sifat ko'rsatkichlarini eksperimental tadqiq etish;

Xiva shahrida avtotransport shovqini va chiqindi gazlari tarqalishini eksperimental tadqiq etish;

tarixiy Xiva shahrida ekologik toza shahar majmuasini yaratish bo'yicha shaharsozlik-rejaviy, muhandislik va ma'muriy chora-tadbirlariga taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda taklif va tavsiyalarni iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

Xiva shahridagi mavjud avtotransport vositalari miqdorlarini aniqlash va kelajakda kutilayotgan miqdorlarini prognoz qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Xiva shahar ko'cha-yo'l tarmog'i olingan.

Tadqiqotning predmetini tarixiy Xiva shahrining ko'cha-yo'l tarmog'idagi avtotransport vositalari harakatini va ko'cha bo'yi ekologiyasini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda matematik statistika, korrelyatsion tahlil usullari, kuzatuv, regression tahlil usullari hamda matematik modellashtirish va prognozlash, geoinformatsion texnologiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xiva shahridagi KYT bo'yicha avtotransport harakati jadalligining dastlabki kartogrammasi, visual (ko'z bilan ko'rib sanash) va kuzatuv video kameralari orqali olingan natijalari asosida ishlab chiqilgan;

ilk bora Xiva shahrida avtotransport vositalaridan chiqayotgan shovqin va chiqindi gazlar miqdori o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida hudud bo'ylab tarqalishini GIS tizimida interpolyatsiya usullaridan foydalanilgan holda, hududning ekologik xavlilik darajalari xaritasi 5 ta gurux bo'yicha baholash usuli ishlab chiqilgan;

Xiva shahrining Bosh rejasiga avtotransport harakatini to'g'ri tashkillashtirishda transport zichligining parametrlariga bog'liqligi, ekologik ta'sirlari, transport oqimining sifat ko'rsatkichlarining shahar ekologiyasiga salbiy ta'sirlarini kamaytirish bo'yicha takomillashtirilgan shaharsozlik modelini ishlab chiqish orqali shaharda shaharsozlik-rejaviy hamda ma'muriy chora-tadbirlarini taklif etish asosida avtotransport shovqini va chiqindi gazlarini 15% ga kamaytirish mumkunligi aniqlangan;

Xiva shahri hududidagi avtotransportlar sonini istiqboldagi o'sishini prognoz qiluvchi trend modeli naturaviy kuzatuvlar asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xiva shahri KYT zichligi dunyo shaharlarining KYTni o'rtacha zichligiga nisbatan aniqlangan;

Xiva shahri KYTdagi avtotransport shovqini va chiqindi gazlari miqdorlari mazkur KYTning real avtotransport harakati jadalligi, tarkibi va yuklanganlik darajasini naturaviy kuzatuvlar natijasida aniqlandi va olingan natijalar ruxsat etilgan me'yorlarga nisbatan tahlil qilinib Xiva shahri uchun dastlabki ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan;

Xiva shahridagi tarixiy majmualarni avtotransport shovqini va chiqindi gazlari miqdorlarini kamaytirish shuningek, tarixiy majmua hududi bo'ylab ekologik toza shahar muhitini yaratish maqsadida maxsus tarixiy ko'cha-yo'l tarmog'larida avtotransport harakatini rejalashtirish bo'yicha takomillashtirilgan modeli ishlab chiqilgan;

Xiva shaharida yo'l infratuzilmasi va transport-muhandislik inshootlarini loyihaviy yechimlari (transport o'tkazish tugunlari, vaqtinchalik saqlash maydonlari va boshqalar) takomillashtirilgan;

"Ichon-Qal'a" majmuasiga kelib ketuvchi ichki-tashqi turistlarga avtotransport xizmati optimallashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o'z aksini topgan umumiy xulosalar, shahar turar-joy maskanlari, tarixiy yodgorliklar majmuasini umrboqiyiligini oshirish va aholini avtotransport shovqini va chiqindi gazlaridan himoya qiluvchi shaharsozlik-rejaviy va ma'muriy chora-tadbirlari hamda avtotransport harakatini rejalashtirishda Bosh reja asosida o'zaro bog'lanishi, muvofiqligi, hisobiy va eksperimental natijalarning o'zaro mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Xiva shahrining ko'cha-yo'l tarmog'ida olingan nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan shovqin va chiqindi gazlari

miqdorlarini aniqlashning matematik modeli, ko'cha-yo'l tarmog'i kartogrammasi, zichligi mazkur tarmoqni istiqbolini belgilashda, ko'chalarning o'tkazish qobiliyatini prognoz qilishda, shaharga kirib keluvchi avtotransport vositalarining harakat jadalliklarini tahlil qilish va prognoz qilishda, transport zichligi, avtomobil tezligi va har ming aholisiga to'g'ri keluvchi avtotransport vositalarining miqdori va kelajakda kutilayotgan miqdorlariga nisbatan ularning atrof-muhitga yetkazadigan zararlarini, xususan, shovqin va chiqindi gazlari miqdorlarini nazorat qilish va ulardan himoyalash usullarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Xiva shahri ko'cha-yo'l tarmog'ining harakat jadalligi kartogrammasi ishlab chiqilib bu asosida ko'cha-yo'l tarmog'i zichligi, avtotransport oqimining sifat ko'rsatkichlari, transport zichliklarini shahar ekologiyasiga keltirib chiqaradigan zararlarini kamaytirish bo'yicha shaharsozlik amaliyotda foydalanish mumkunligi hamda arxitektura sohasida tarixiy Xiva shahrini chiqindi gazlari ta'sirlaridan saqlab qolish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shahar muhitining sanitar-gigienik holatini yaxshilash maqsadida shovqin va chiqindi gazlari miqdorlarini pasaytirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

ilk bora tarixiy Xiva shahridagi ko'cha-yo'l tarmog'i bo'yicha avtotransport harakati jadalligining kartogrammasi visual hamda kuzatuv video kameralar orqali olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11 sentabrdagi 24-06/9458-son ma'lumotnomasi). Natijada Xiva shahri ko'cha-yo'l tarmog'ining 2023 yil holatiga yuklanganlik darajasini kamaytirish bo'yicha shaharsozlik-rejaviy chora-tadbirlari taklifi orqali ya'ni, katta halqa yo'li taklifi asosida shaharda yuklamani 35% kamaytirishga imkon bergan;

ilk bora Xiva shahrida avtotransport vositalaridan chiqayotgan shovqin va chiqindi gazlari miqdorlarini GIS (Arcmap) tizimiga kirg'izish orqali hudud bo'ylab tarqalishini interpolyatsiya usullaridan foydalangan holda prognoz qilingan va O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11 sentabrdagi 24-06/9458-son ma'lumotnomasi). Natijada shovqin va chiqindi gazlarning hudud bo'ylab tarqalish xaritasi orqali ekologik xavlilik darajalari xaritasi 5 ta gurux bo'yicha baholash usuli ishlab chiqilgan;

Xiva shahrining Bosh rejasiga avtotransport harakatini to'g'ri tashkillashtirishda transport zichligining parametrlariga bog'liqlikligi, ekologik ta'sirlari va transport oqimining sifat ko'rsatkichlarining shahar ekologiyasiga bo'lgan ta'sirlarini kamaytirish bo'yicha takomillashtirilgan shaharsozlik modeli taklifi O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal

xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11 sentabrdagi 24-06/9458-son ma'lumotnomasi). Natijada shaharning tarixiy qismida shaharsozlik-rejaviy va ma'muriy chora-tadbirlariga taklif va tavsiyalar ishlab chiqish asosida avtotransport shovqini va chiqindi gazlarini 15% ga kamaytirish mumkunligi aniqlangan;

Xiva shahri hududidagi avtotransportlar sonini istiqboldagi o'sishini prognoz qiluvchi trend modeli naturaviy kuzatuvlarga ko'ra ishlab chiqilgan modelidan foydalangan holda keyingi davr uchun shahardagi avtotransport vositalarini prognoz qiymatlarini ishlab chiqish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11 sentabrdagi 24-06/9458-son ma'lumotnomas). Natijada Xiva shahrining istiqbolli Bosh rejasiga taklif ishlab chiqish uchun KYTning optimal rivojlanish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta Xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy maqola va tezislar nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, ulardan 3 tasi xalqaro "ResearchBib" ma'lumotlar bazasidagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Muammoning holati va tadqiqot vazifalari**" deb nomlangan birinchi bobida Xiva shahri aholisining o'sish dinamikasi, viloyatning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, ko'cha-yo'l tarmog'i tizimi va Respublikamizdagi tarixiy shaharlarning transport faoliyatini asosiy ko'rsatkichlari hamda avtomobilizatsiya darajasi tahlil qilingan. Shaharlarning jadal rivojlanishi asosan sanoatni jadal o'sishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti va mehnatni tashkil etish xususiyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu jarayonlarning uyg'unligi ko'p hollarda urbanizatsiya atamasi bilan izohlanadi. Xiva shahri, Xorazm viloyati hududining 0,6 % ni tashkil etadi. Aholi soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 98,8 ming kishini va zichligi 1 km². ga 2898 kishi to'g'ri kelyabdi. Yangiariq, Qo'shko'pir

tumanlari va qo‘shni Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh. Shahar muhim geografik o‘rinda 40⁰-31⁰ va 42⁰ shimoliy kengliklar 60⁰-62⁰ sharqiy uzunliklar oraliq‘ida joylashgan va shahar iqlimi keskin kontinental hudud hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llari tarmog‘ining umumiy uzunligi 210 ming km. dan ortiq. Ulardan 42869 km. umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo‘llari bo‘lib, ularning 94 foizidan ko‘prog‘i qattiq qoplamali yo‘llardir. Xiva shahrida ham shahar ahamiyatidagi va tuman ahamiyatidagi ko‘chalarning uzunligi 50,5 km. ni va mahalliy ahamiyatidagi ko‘chalarning uzunligi 282 km. ni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV JXD YHX boshqarmasidan olingan ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining (Qo‘qon, Termiz, Samarqand, Urganch va Xiva kabi) tarixiy shaharlaridagi avtotransport vositalari soni 2023-yil 1-yanvar holatiga 192375 tani tashkil etgan, bu ko‘rsatkich 2013-yilga nisbatan 74% ga oshgan. Respublikamizning tarixiy shaharlari kesimida yengil avtotransport vositalarining o‘shish dinamikasi quyidagicha 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Tarixiy shaharlarimizdagi mavjud yengil transport vositalari soni

Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavsizligi xizmati yo‘l harakati xavsizligi boshqarmasidan olingan ma’lumotlarga asosan Xorazm viloyatida 2023-yil 1-yanvar holatiga jami transport vositalari soni 246205 tani tashkil etgan. Xiva shahri, Xorazm viloyatining jami transport ko‘rsatkichining 6,4 % ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning “**Xiva shahar ko‘cha-yo‘l tarmog‘i tizimini nazariy jihatdan tadqiq etish**” deb nomlanuvchi ikkinchi bobida shahar ko‘cha-yo‘l tarmog‘ida jamoat transport tizimlarining harakat yo‘nalishlari, avtomobil transportida yo‘lovchilarni tashish, shahar aholisiga xizmat ko‘rsatayotgan jamoat transporti yo‘nalishlarining parametrlari, tarixiy shahar obidalari yonida joylashgan ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining rejaviy joylashuv holati va shahar ko‘cha-yo‘l tarmog‘i zichligini nazariy tahlil qilishga oid natijalar keltirilgan.

Urbanizatsiya jarayoni jadallashuvi, shaharlarning ko‘payishi hamda aholi sonining o‘shishi natijasida jamoat transporti va shaxsiy avtotransport vositalariga

bo'lgan talab va ehtiyoj yil sayin oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, shahar ko'cha-yo'l tarmog'larida jamoat transporti xizmatlarining sifatini oshirish bugungi kundagi zamonaviy talablarga moslashtirishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda Xiva shahrida, shahar ichi yo'nalishlarida 4-ta yo'nalish mavjud bo'lib, ularda kunlik shahar aholisiga xizmat ko'rsatib kelayotgan 19-ta avtobus orqali 144-ta qatnov amalga oshirib kelmoqda. Xiva shahriga faoliyat ko'rsatib kelayotgan shahar ichki, shahar atrofi, shahar yo'nalishli taksi xizmatlari, shaharlararo viloyat ichki yo'nalishlari va shaharlararo viloyat ichi yo'nalishli taksi xizmatlari shaharga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Xiva shahriga xizmat ko'rsatayotgan yo'nalishli taksilarning ulushi 50% teng bu esa o'z navbatida, shaharga kirib keluvchi oqim shahar ichi va shahar atrofi yo'nalishlariga qaraganda yo'nalishli taksilarga viloyat aholisining Xiva shahar shahri ichki yo'nalishlariga ehtiyoji kamligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Shaharga xizmat ko'rsatib kelayotgan yo'nalishlarning parametrlari

Marshurt turi	Marshurt miqdori (dona)	Ulushi (%)
Shahar ichki	4	16.6
Shahar atrofi	5	20.8
Yo'nalishli taksi	12	50
Shaharlararo viloyat ichi yo'nalishlari	2	8.4
Shaharlararo viloyat yo'nalishli taksilari	1	4.2

Xiva shahri hududining bugungi kundagi tarixiy qismini nazariy tahlil qilish asosida ko'cha-yo'l tarmog'ining rejayiy joylashuvini o'rganishdan iborat. Hududlarning tarixiy va me'moriy joylashuv rejalari arxiv va bibliografik ma'lumotlardan foydalangan holda tadqiqotlar olib borildi (2-rasm).

1922-yilda sobiq SSSR rahbariyatining topshirig'iga binoan fuqaro Muhammad Karim Ne'matulla o'g'li (Matkarim naqqosh) birinchilardan bo'lib o'z ulovi bo'lgan eshak-aravasida yurib, Xiva shahrining xaritasini chizib qog'ozga tushurgan va bu inson birinchi marta Xiva shahrining ko'cha-yo'l tarmog'ini to'liq aks ettirgan inson hisoblanadi (2-rasm). Matkarim naqqoshning bu xaritasi Xiva shahrining XX asr boshidagi ko'rinishini aniq tasvirlovchi eng ishonchli manbadir. Ayniqsa ko'cha-yo'l tarmog'leri va uning elementlari aniq o'lchamlar asosida keltirilgan, bu esa bugungi kunda faoliyat ko'rsatadigan ShNQ 2.07.01-03* "Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish" da ko'cha-yo'l tarmog'i o'lchamlariga mos kelayotganini 2-rasmda ko'rishimiz mumkin. Bu esa ko'plab muhandislik inshootlari jumladan, ko'cha-yo'l tarmog'ining elementlari dastlab Xiva shahrining shakillanishida aniq o'lchamlari asosida ishlab chiqilganligi va qadimda mintaqada fan-texnika sohasi barqaror rivojlanganligidan dalolat beradi.

Shaharning ko'cha-yo'l tarmog'i boshi berk ko'chalar sxemasi yordamida qurilgan ya'ni, asosiy ko'chalarga biriktirilgan boshi berk ko'chalar. Muallif


qadimda Xiva shahri ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining klassifikatsiyalari quyidagicha ifodalangan:

1. Xalqaro ahamiyatdagi yo‘llar;
2. Shahar ahamiyatidagi Qal’alarni birlashtiruvchi yo‘llar;
3. “Deshon-Qal’a” darvozalari orqali shaharga kiruvchi asosiy yo‘llar;
4. Mahalliy ahamiyatdagi shahar ichi boshi berk ko‘chalar.



2-rasm. Xiva shahrining 1922-yilda tuzilgan Bosh rejasi asosida shaharnin ko‘cha-yo‘l tarmog‘i sxemasi

Matkarim naqqoshning bizga chizib qoldirgan Xiva shahri (Ichon-Qal’a) ko‘cha va yo‘l xaritasini tahminan M:1:2500 deb qabul qilinib, shaharsozlik tahlili natijasida eng kichik boshi berk ko‘chalarning uzunligi 13 metrni, eng katta boshi berk ko‘chalarning uzunligi 150 metr masofani tashkil etdi. Boshi berk ko‘chalarning ko‘ndalang kesimi eng kichik 3.6 metrni (3-rasm), eng katta ko‘ndalang kesimi 5.1 metrni tashkil etdi. Bugungi kunda ham Xiva shahridagi ko‘cha-yo‘l tarmog‘i elementlarining oldingi holatda saqlanib qolingani, bu elementlarning talab va normalariga mos kelishi (o‘lchamlari) bugungi kunda shaharsozlik norma va qoidalarida faoliyat ko‘rsatayotganligini ko‘rishimiz mumkun.



3-rasm. Qadimgi Xiva shahar ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining ko‘ndalang kesimi

Qadimda avtomobil transporti kashf etilguncha ot va eshak arava transportidan foydalanilgan. Tahlillar natijasida “Ichon-Qal’a” ichidagi tarixiy (ot va eshak arava) transportning eni 1,5 metrni tashkil qilib, bemalol harakatlanishi (manyovur qilishi) uchun har tarafdin 30 sm. gacha maydon qoldirilgan, shuningdek bir harakat yo‘lagi tasmasing eni 2,1 metrgacha bo‘lganligi aniqlandi.

Jahon shaharsozlik tajribasidan foydalangan holda transport infrastrukturasi rivojlanganlik darajasini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu, shahar ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining zichligi (S) dir. Bu ko‘rsatkich ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining shahar maydoniga nisbati bilan tavsiflanadi.

Ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining zichligi kuyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P = \frac{L}{S} \quad (1)$$

Bu yerda P - ko‘cha-yo‘l tarmog‘i zichligi, km/km²;

L- ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining umumiy uzunligi, km;

S- shahar hududining maydoni, km².

$$P=50.5/34.08 \approx 1.5 \text{ km/km}^2$$

(1)-formula yordamida Shaharning o‘rtacha ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining zichligi 1.5 km/km². ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning “**Xiva shahri transport tizimini shaharsozlik va ekologik jihatlarini eksperimental tadqiqotlari**” deb nomlanuvchi uchinchi bobida, Xiva shahar ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining yuklanganlik kartogrammasi, transport zichligi, avtotransport vositalaridan chiqayotgan shovqin va chiqindi gazlaridan atrof-muhitni ifloslanish darajasi va shaharga kirib keluvchi avtotransport vositalari harakatining oqim miqdori asosida ularning kelajakda kutilayotgan oqim miqdorlari matematik modellashtirish natijasida aniqlangan.

Shaharlarga kirib keluvchi transport oqimi bu - shahar va tumanlardan avtotransport vositalari orqali shaharga kunlik (ishlovchi) kelib- ketuvchi aholi, ichki va tashqi turizm, xizmat safari kabi sabablar bilan kirib keluvchi

avtotransport vositalari sonini aniqlash birligi (avt/soat yoki dona/sutka) joriy qilingan.

Mintaqadagi umumfoydalanuvdagi yo‘llarida harakat jadalligini ko‘z bilan ko‘rib (vizual) hisobga olishda MQN 45-2007 me‘yoriy ko‘rsatmalari asosida olib borildi.

Shaharda avtomobillar harakatining kelajakdagi istiqbolli o‘rtacha yillik sutkalik harakat jadalligini iqtisodiy tadqiqot ma‘lumotlari asosida aniqlanadi. Yuk va yo‘lovchilar oqimlari to‘g‘risida zarur ma‘lumotlar mavjud bo‘lmasa, o‘rtacha yillik sutkalik harakat jadalligi kelajakdagi istiqbolli rejalarini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$N_{SS} = N_0 (1 + \alpha)^t \dots\dots\dots(2)$$


Bu yerda N_0 –yo‘l tarmog‘ida eksperimental tadqiqotlar natijasida aniqlangan o‘rtacha yillik sutkalik harakat jadalligi (dona/sutka);

α -harakat jadalligining yillik o‘shish koeffitsiyenti, tez rivojlanayotgan shahar bo‘lgani uchun o‘rtacha 0.05-ga teng;

t- harakat jadalligini kelajakdagi prognoz qilinayotgan davr.

Kelajak uchun harakat jadalligini oshirish koeffitsienti qiymatini $(1 + \alpha)^t$ 10-yil uchun olganimizda natija 1,63-ga to‘g‘ri keladi.

Xiva shahriga kirib keluvchi avtotransport vositalarining kelajak 10-yillikdagi kutilayotgan o‘rtacha yillik harakat jadalligi yillar kesimida 4-rasmda quyidagicha keltirilgan:



4-rasm. Xiva shahriga kirib keluvchi avtotransport vositalarining miqdori

Xiva shahriga kirib keluvchi transport oqiminining kelajakdagi (5-rasm) modelini ko‘radigan bo‘lsak, kelajak 10-yillikdagi o‘rtacha yillik sutkalik harakat jadalligi 63% ga ortishi aniqlandi.

Xiva shahrining kelajakda Bosh rejasiga taklif va tavsiya ishlab chiqish jarayonida muhim hisoblangan bir qancha omillar mavjud jumladan, shahar transport majmuasi, alohida olingan tuman transport tizimi, transport harakatini tashkil etish kabi masalalar, shahar transport harakatini o‘rganish bo‘yicha tizimli kuzatishlar olib borishni taqozo etadi. Bu kuzatishlar asosida shaharda quyidagilar shakllanadi: mavjud transport harakat jadalligi kartogrammasi; asosiy yo‘nalishlardagi yo‘lovchi va yuk oqimlari; kelajakdagi kutilayotgan transport harakat jadalligi kartogrammasi; asosiy yo‘nalishlardagi yo‘lovchi va yuk oqimlari

miqdori; shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va avtomobillar ko'payishini prognoz qilinadi.


Xiva shahridagi mavjud tarixiy yodgorliklarni avtotransport vositalarining salbiy ta'sirlaridan muhofaza qilishda atrof-muhit va transport ekologiyasi kabi omillarni tahlil qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda kelajakda, Xiva shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining o'rtacha yillik sutkalik harakat jadalligining yuklanganlik kartogrammasi ishlab chiqildi(5-rasm).



5-rasm. Xiva shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining yuklanganlik darajasi (dona/sutka) 2023-yil holatiga

Transport zichligini o'rganishdan maqsad shuki, avtomobil yo'llarining 1-harakat tasmaida xarakatlanayotgan avtotransport vositalarini qachon erkin oqim tezligida va uning o'rtacha tezligida harakatlanishidir, tahlillar natijasida aniqlangan zichlikning qachon Xiva shahri ko'cha-yo'l tarmog'ida tirbandsiz, tirband va yuqori tirbandlikdagi zichlikka erishishi, tezlik va zichlik modellarida kuzatishimiz mumkin. Oqim va zichlikning bog'liqlik modelida esa eng yuqori oqim imkoniyatiga kosmik o'rtacha tezlikda erisha olishi, tirband paytlaridagi zichlikga erishganida esa bu oqim nolga intilishiga olib keladi. Tezlik va oqimning bog'liqlik modelida esa erkin oqim tezligiga erishilganda oqim nolga intilishini, kosmik o'rtacha tezlikda esa eng katta oqimga erishishini ko'rishimiz mumkin. Olib borilgan eksperimental tadqiqotlarga asosan Xiva shahrida harakatlanayotgan avtotransport vositalarining transport zichliklari aniqlandi (6-rasm).

IV-toifaga kiruvchi 4k986 avtomobil yo'lining harakat jadalligi 33685 dona/sutkani tashkil etib belgilangan ShNQ 2.05.02-07 ning 3-son o'zgartirishining 2-jadvali (200-2000 dona/sutka) da ko'rsatilgan qiymatidan 16 barobar kattaligi aniqlandi hamda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining 2023-yil holatiga asosan shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining yuklanganlik darajasi belgilangan talablardan oshib borayotgani kuzatildi.




6-rasm. Davlat ahamiyatidagi 4r158 (Urganch-Xiva) avtomobil yo‘lining tezlik, oqim va zichlik parametrlarining bir biriga bog‘liqlik modeli


So‘ngi yillarda shaharlarda avtomobillar sonining jadal suratlarda o‘shishi munosabati bilan atrof-muhitning shovqin va chiqindi gazlari bilan ifloslanish darajasi ortib bormoqda. Bu ko‘cha-yo‘l tarmog‘i bo‘ylab joylashgan turar-joy binolarida yashovchi aholi va jamoat binolarida ishlovchi aholilarning avtotransport vositalaridan chiqayotgan shovqin va chiqindi gazlari miqdori hozirgi vaqtda shahar aholisi ishlab chiqarishda ham, kundalik hayotda ham noqulay holatda ekanligidan dalolat bermoqda.

Barcha o‘lchashlar GOST 203337-2014, SanPiN -0008-20, GOST 1211005-88 va SanPiN 0293-11 larga muvofiq tuzilgan, turar-joy binolari hududida shovqin (Shumomer assistent №367621) va chiqindi gaz (ANT-3M) qurilmalari yordamida miqdorlarini o‘lchash ishlari bo‘yicha, ishlab chiqilgan metodikasiga muvofiq amalga oshirilgan. Mazkur metodika (selitib) aholi yashash hududida haqiqiy avtotransport shovqini va chiqindi gazlari miqdorlarini baholash uchun mo‘ljallangan. Turli joylarning prognoz qilingan shovqin va chiqindi gazlari miqdorlari kengaytirilishi va interpolyatsiya usullaridan foydalangan holda GISdagi shovqin va chiqindi gazlarining shahar hududi bo‘ylab tarqalish xaritasi ishlab chiqildi (7-8-rasm).

XIVA SHAHRIDA SHOVQINNING TARQALISH DARAJASI KARTASI



7- rasm. GIS dasturi orqali shovqin darajasining tarqalishini interpolyatsiya qilish usuli yordamida hududlarni prognoz qilish




8-rasm. Xiva shahar hududi bo‘ylab avtotransport vositalaridan chiqayotgan chiqindi gazlar miqdorini hudud bo‘ylab tarqalishi 12.07.2023 yil holatiga

Dissertatsiyaning “**Tarixiy ko‘cha-yo‘l tarmog‘ida avtotransport harakatini rejalashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo‘yicha taklif va tavsiyalar**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida harakat jadalligiga avtotransport vositalaridan chiqayotgan shovqin va chiqindi gazlari miqdori, avtomobil tezligi va transport zichliklari matematik qonuniyatlar asosida modellashtirilgan, tarixiy Xiva shahar ko‘cha-yo‘l tarmog‘larini rejalashtirishda takomillashtirilgan shaharsozlik modeli ishlab chiqilgan, shaharda ekologik toza muhit yaratishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan va ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida iqtisodiy samaradorligi aniqlangan hamda Xorazm viloyati hududida avtotransport vositalari sonini istiqboldagi prognoz qiymatlari keltirilgan.

Tarixiy shaharlar ko‘cha-yo‘l tarmog‘ida avtotransport harakatini rejalashtirishni aniqlash bo‘yicha takomillashtirilgan modelidan foydalanish uchun quyidagi sxema (9-rasm) dan foydalaniladi.


Tarixiy Xiva shahrida toza ekologik muhit yaratish maqsadida shaharsozlik-rejaviy va ma‘muriy chora-tadbirlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Shaharning Shimoliy va janubiy tugun loyihaviy rejasini hisobga olib tashqi va ichki turizmdan kelayotgan oqim va aholiga tarixiy “Ichon-Qal’a” majmuasiga tashrif buyuruvchi turistlar uchun elektro skuterlar, kichik turdagi jamoat elektromobili, velosiped, tarixiy ot ulov hamda troylebus yo‘nalishi kichik halqa yo‘lida rejalashtirish taklif qilindi. Ayniqsa tarixiy shaharlarga yo‘lovchi tashish transportining zamonaviy intermodal tizimini shakllantirishda, avtotransport harakatini rejalashtirish bo‘yicha birlamchi chora-tadbirlar guruhiga kiruvchi shaharsozlik-rejaviy usullari (transport o‘tkazish tugunlari va vaqtinchalik saqlash maydonlari loyihalari) ni takomillashtirilib ekohududga aylantirish tavsiya etiladi (10-rasm).



9-rasm. Tarixiy shaharlar ko'cha-yo'l tarmog'ida avtotransport harakatini rejalashtirishda shaharsozlik modeli

10-rasmda tavsiya etilayotgan kichik halqa yo'lining uzunligi va yuklanganlik darajasi hamda shaharni aylanib o'tish vaqtining qisqarishidir. Yana bir afzallik tomonlaridan biri, tarixiy Xiva shahar hududida (aylanma yo'lining ichki qismida) transportsiz ekologik toza hududni shakillantirishda ma'muriy chora-tadbirlar guruhidan foydalanib, ushbu hududlarda avtotransport vositalarini harakatini butunlay taqiqlagan holda shaharning tarixiy majmuasi (Ichon-Qal'a) ni shovqin va chiqindi gazlari xavfidan mutlaqo himoya etish orqali, ekologik toza tarixiy shahar markazini shakillantiriladi.




10-rasm. Xiva shahri hududida taklif etilayotgan transport o'tkazish tugunlari va vaqtinchalik saqlash maydonlarining prinsipial sxemasi

